

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga
Kafedra mudiri

«_____»

«____»_____2014y

**BAKALAVR MALAKAVIY BITIRUV
ISHI**

Mavzu:

Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash videokursini yaratish

Bitiruvchi _____
(imzo)

Turmanov Sh.
(f. i. o)

Rahbar: _____
(imzo)

Ismailov M.A.
(f. i. o)

Taqrizchi _____
(imzo)

(f. i. o)

XFX bo'yicha
maslahatchi _____
(imzo)

(f. i. o)

Toshkent-2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet: Kompyuter injenering
Kafedra: Axborot texnologiyalari
Yo'nalish (mutaxassislik): Informatika va axborot texnologiyalari

«TASDIQLAYMAN»
Kafeda mudiri _____
«_____» _____ 2014 y.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

TOPSHIRIQ

Turmanov Shuxrat Xamraevich
(familiya, ismi, otasining ismi)

1. BMI mavzusi: Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash videokursini yaratish
2. Universitetning 19.04.2014 №254-15 yildagi qarori bilan tasdiqlangan
3. Ishni to'liq bajarish uchun berilgan vaqt _____
4. Ishning boshlang'ich ma'lumotlari: Amaliyot materiallari
5. Xisob tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi masalalar ro'yxati): Kirish, taxliliy qism, asosiy qism, amaliy qism, hayot faoliyati havfsizligi xulosa.
6. Grafik materiallar ro'yxati: Prezentatsiya materiallari, jadvallar
7. Topshiriq berilgan kun: 22.02.2014

Rahbar _____
(imzo)

Topshiriqni oldim _____
(imzo)

8. BMI ishining har bir bo'limida bajariladigan ishlarga maslaxatlar

Bo'lim	Rahbar F.I.O	Imzo vaqt	
		Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
Asosiy qism HFX	Ismailov M.A.		

9. Ishni bajarish grafigi.

T.R	Ish qismining nomi	Bajarish muddati	Rahbar
1	Kirish.		
2	Taxliliy qism		
3	Asosiy qism		
4	Amaliy qism		
5	Hayot faoliyati havfsizligi		
6	Xulosa.		

Bitiruvchi _____

(imzo)

«_____» _____ 2014y.

Rahbar _____

(imzo)

«_____» _____ 2014y.

Ushbu bitiruv-malakaviy ishi "Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash" video kursini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Video kurs IBExpertdan foydalanuvchi har qanday dasturchi bilishi lozim bo'lgan, eng dolzarb va boshlang'ich ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Berilgan funksiyalarni amalga oshirishda Delphi 7 dasturlash tilidan foydalanildi.

Данная выпускная квалификационная работа посвящена разработке видеокурса по работе с базой данных. Видеокурс включает в себя начальные и актуальные вопросы, которые должен знать каждый пользователь работающий с IBExpert. Для выполнения предложенных функций в качестве языка программирования был выбран Delphi 7.

This final qualification work is devoted to development of a videocourse on work with a database. The videocourse includes initial and topical issues which each user working with IBExpert has to know. For performance of the offered functions as a programming language Delphi 7 was chosen.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I-BOB. TAHLILIY QISM.....	12
1.1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlaridagi o'rni.....	12
1.2. Elektron o'quv qo'llanmalarni qurish asoslari.....	14
1.3. Masalaning qo'yilishi.....	17
II-BOB. ASOSIY QISM.....	17
2.1. Interaktiv elektron darsliklar qurishning asosiy talab va tamoyillari.....	22
2.2. O'qitish jarayonini boshqarish usullari.....	25
2.3. Delphi dasturlash tili.....	36
2.4. Ma'lumotlr bazasini yaratishda InterBase ning tizimli jadvalidan foydalanish	
III-BOB. AMALIY QISM.....	46
3.1. Dasturchiga qo'llanma.....	46
3.2. Foydalanuvchiga qo'llanma.....	51
IY-BOB. HAYOT FAOLIYATU XAVFSIZLIGI.....	55
4.1. Ergonomika.....	55
4.2. Gipodinamiya inson salomatligiga ta'siri.....	60
XULOSA.....	64
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65
ILOVA.....	66

KIRISH

Inson faoliyatining barcha sohasini kompyuter texnologiyalari qamrab olmoqda, ya'ni hozir biz yashayotgan davr kompyuter asri kirib kelishi deb qarashimiz mumkin. Bunday deyishimizga sabab, kompyuter bizning hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shunday ekan kompyuter savodxonligi ikkinchi savod sifatida qaralmoqda. Bu esa yalpi kompyuterlashtirishni tezlashtirmoqda.

Kompyuter texnologiyalari ta'lim jarayoniga ham jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Uning vositasida o'qituvchi va ta'lim oluvchining ish mahsuldorligini, ta'lim berish va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish asosiy maqsaddir. Shu qatorda kompyuter texnologiyalarini tor va keng ma'noda ishlatish mumkin. Birinchidan, o'qitish vositasi sifatida qo'llash, ikkinchidan, kompyuterni ta'lim sohasida keng maqsadlarda qo'llash tushiniladi.

Bundan keyingi o'qitish tizimlarini qurishning rivojlanishi texnik vositalarning rivojlanishi bilan hamohang tarzda kechdi. Ayniqsa rangli tasvir, grafik va videoaxborot joylash imkoniyatiga ega shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi ta'lim uchun texnik muhitni yaratishning psixologik asosini yaratdi.

70 – yillardagi ishlar generatsiyalanuvchi o'qitish dasturlari bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor masala ko'rinishiga qarab masala shartlari generatsiyasi uslubini ishlab chiqishga qaratildi.

Keyingi bosqich 70 – yillarning ikkinchi yarimiga to'g'ri kelib, unda bilim oluvchi haqida bilimlarni ifodalashga (bilim oluvchi modelini shakllantirishga) bilim berish strategiyasiga asosiy etibor qaratildi.

80 – yillarga kelib shaxsiy EHM hayotga kirib kelishi bu sohadagi tadqiqotlar borasida alohida talablar keltirib chiqara boshladi. Bu yillarda EHMni ta'lim jarayonida qo'llash sun'iy intellekt nazariya va amaliy usullari, ya'ni bilimlar injeneriyasi va ekspert tizimlarini yaratish texnologiyalari ta'sirida bo'ldi. Bu davrda intellektual o'qitish tizimlarining klassifikatsiyasi taklif etildi hamda

alohida sinflar bo'yicha ishlab chiqishga harakat qilindi. Bundan tashqari ta'lim oluvchi bilan tizim o'rtasida grafik interfeys yaratishga katta e'tibor berildi. Umuman, intellektual o'qitish tizimlari borasidagi ishlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish kuzatildi hamda tajriba namunalari ishlab chiqarishdan tijorat maqsadlaridagi ishlab chiqirishlar yo'lga qo'yila boshlandi. Shu bilan birga ularni barpo etish uchun qurish vositalrini ishlab chiqish bo'yicha ishlar jadallashtirildi.

90 – yillarga kelib kompyuter texnologiyalari sohasida sakrash kuzatildi. Ushbu sakrash ilmiy tadqiqot ishlari oldiga yangi – yangi masalalar keltirib chiqardiki, ularning natijasi o'laroq foydalanuvchi interfeyslari yuqori imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Bu davrga kelib tarmoq texnologiyalari keskin rivojlandi. 90 – yillarning ikkinchi yarmida axborot almashinuvining globallashuvi, INTERNET texnologiyasining muttasil rivojlanishiga olib keldi. Huddi shu asnoda kompyuter texnologiyalarida birgina texnik imkoniyatlarning o'sishi bilan emas, balki dasturiy vositalarning ham yuqori darajaga chiqishi kuzatildi. Ya'ni bu davrda dasturiy tillarning yangi avlodlari vujudga kela boshladi. Ular qatorida visual – texnologiyalari ham bo'lib, avvalgi imkoniyatlar barobarida ularda ob'ektlar bilan ishlash va bir qator qo'shimcha imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu imkoniyatlar dasturchilar uchun qulay sharoit tug'dirib, ularni dastur tuzishi davomida ob'ektni to'la tasavvur qilishlari va qulay interfeyslarni qurishlariga imkoniyat yaratdi. Albatta, imkoniyatlar yangi talablarni vujudga keltiradi. Ushbu talablar ta'lim tizimida ham turli talablarni keltirib chiqarmoqda. Ta'lim tizimi, bizga ma'lumki, bir qancha turlarga bo'linadi. Ushbu turlarning biri bo'lmish MO'T turi hozirgi kunga kelib, jadal rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish MO'Tni boshqa ta'lim yo'nalishlaridan ustuvor tomonlarini namoyon qilmoqda. Ustuvorlik birgina iqtisodiy tomondan emas, balki turli boshqa parametrida ham yaqqol ko'rinmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida axborot texnologiyalarini qo'llashning yangi usullari tadbqiq etilmoqda va qandaydir natijalarga ham erishilmoqda.

Ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim tizimida kompyuter vositalaridan foydalanish zarurligi bugungi kun talablaridan kelib chiqmoqda. O'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni samarali yo'lga qo'yish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayorlash milliy dasturining ikkinchi bosqich talablari asosida ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishning yo'lga qo'yish, shuningdek, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini rivojlantirish dasturini amalga oshirish va shu asosda ta'lim jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashni amalga oshirish, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishi ko'rsatib o'tilgan.

O'qitish tizimida EHM vositasidan foydalanish bu birinchi navbatda tizimga ilg'or axborot texnologiyalarini olib kirish bo'lsa, ikkinchi tomondan tizimdagi pedagogik faoliyat og'ir yukini engillashtirishdir. Shu qatorda yana bir jihat o'qitish tizimini ochiq ko'rinishga keltiradi. Ochiqlik o'z navbatida o'qitishni ma'no jihatidan yangilanib borishiga imkoniyat tug'diradi.

Kompyuter texnologiyalarini o'qitish jarayonlarini to'liq qamrab olishi kerak degan fikr ustida munozaralar keskin bo'lmoqda. Bu haqida turli mualliflar turlicha yondashuvdagi fikrlarni bildirishmoqda.

Ulardan ba'zilarini tahlil qilib o'tamiz. Shunday qilib ba'zi mualliflar «Kompyuterli ta'limning farqlanish tomoni – yangi yo'nalish, yanada yuqori darajadagi ekspert bilimni qabul qilish va qayta ishlash: an'anaviy ta'lim jarayonida bilimni olish mexanik aks etirilsa, kompyuterli o'qitish tizimi orqali bilimni ishlatishning mexanizmlari va qoidalarini o'zlashtirish imkonini beradi. ya'ni bilim va malaka hosil qilinadi» deb hisoblanadi. «Kompyuterlashtirish birgina bilish tomonini rivojlantirishga emas, balki uning o'z-o'zini anglab etishida motivatsiyasiga, hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Kompyuter kishining ijodiy fikrlashining rivojlanishiga yordam beradimi shubhasiz ha».

Boshqalar esa, «O'qitishning texnik vositalari yordamida o'qitishni tashkil qilish amaliyoti o'qitish jarayonida hech bir ko'rsatkich bo'yicha o'sishga olib kelmadi, shu qatorda bilim egallash sifati borasida ham».

Bunday fikrdagi avtorlar ishlari maqsadi, kompyuter o'qituvchini chigallik va bir xillikdan ozod etishi lozim, kompyuter texnologiyalari esa birinchi navbatda o'quvchilarning ijodiy yondashuvini ta'minlashi, ta'lim jarayoning maxsuldorligini oshiruvchi pillapoya bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu pozitsiya to'g'riligini quyidagi dalillar isbotlaydi, ta'lim tizimini axborotlashtirish ikki yo'nalishi sinalgan:

- kompyuterni o'quv va mustaqil faoliyat vositasi sifatida qo'llashning barcha usullarini o'zlashtirish;
- kompyuterni o'rganish ob'ekti sifatida qo'llash.

Birinchi yo'nalish ta'limni dasturlash g'oyasi asnosida vujudga keldi. Ilk vaqtlarda kompyuter boshqa qurilmalarga nisbatan mukammalroq qurilma, o'qitishni dasturlash tamoyiliga asoslanib qurilgan, o'qitish dasturlarini amalga oshiruvchi texnik vosita sifatida qaralgan. Kompyuterning texnik va dasturlash imkoniyatlari kengaygani sari undan ta'lim jarayonida chuqurroq foydalanish mumkinligi ko'rilmogda.

Kompyuter ta'limni ta'lim oluvchi bilan uning modeli va bilim jamg'armasiga tayangan individual muloqotiga asoslangan dialog rejimi tarzida qurish imkonini beradi. Kompyuterning ta'lim sohasida tutgan o'rniga va bahosiga qarab unga ta'limning yangi axborot texnologiyasi sifatida qoraladi. Bu erda uning bir – biridan farqli texnologiyalari, ish tamoyillari hamda o'qitishni amalga oshirish funktsiyasi va usullari farqlanadi.

Hozirgi kunda minglab o'qitish jarayoni uchun mo'ljallangan tizimlar yaratilgan bo'lib, ularning umumiy klassifikatsiyasi mavjud emas. Ushbu tizimlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- mashq qildiruvchi (trenajer);
- bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi;

- kognitiv o'qitishni dasturlashga yaqin bo'lgan rejimda ishlovchi tushunchalarni o'zlashtirishga mo'ljallangan;
- imitatsion va modellashtiruvchi;
- o'yinli;
- egallangan bilim nazoratini amalga oshiruvchi;
- ma'lumot va axborot bilan ta'minlovchi.

Psixologik nuqtai nazaridan o'quv jarayoni asosan ikki faoliyat – o'qitish va bilim olish faoliyatini o'z ichiga oladi. Kompyuter texnologiyali o'qitishdan ikki katta sinf – o'quv muhiti bilan nomlanuvchi o'qitishga mo'ljallangan dasturlar hamda o'rgatuvchi dasturlarga ajratiladi.

O'quv muhitida ishlash jarayonida o'quvchi bir qator maqsadni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Ya'ni u o'zi yoki o'qituvchi qo'ygan masalani echishda, maqsadga erishishda, dastur unga ko'mak berishi lozim. Ushbu sinfga tegishli dasturlarning xarakterli tomonlari:

- a) o'quvchi so'rovnomasi bo'yicha o'quv materialini va boshqa manbalarni ko'rsatish imkoniyati;
- b) tizim tomonidan o'quvchining faoliyati nazoratini amalga oshirishning mavjud emasligi.

O'qitish muhiti o'quvchi uchun quyidagi xizmatlardan birini taklif etadi:

- 1. axborot – ma'lumot xizmati;
- 2. masala echish (bu erda masala tushunchasi keng qamrovli tushuncha sifatida qaraladi);
- 3. statik va dinamik ob'ektlarning tarkibli va funktsional modelini qurish (bu erga instrumental tizimlarning keng sinfi kalkulyatorlar, matnli va grafik redaktorlardan tortib to dasturlash tillari, elektron modellar quruvchilari, mexanik va boshqa tizimlar hamda ekspert tizim instrumental vositalari kiradi).

Bizga ma'lumki, ta'lim jarayoni qator noaniq jarayonlar bilan bog'liq. Ushbu jarayonni to'liq tasavvur etish hamda ishlab chiqarish yoki biror konkret masalani yechish singari to'liq ravishda aniq jarayon sifatida qaray olmaymiz. Shu

tufayli bu jarayonni modellashtirishda noaniq to'plamlar nazariyasidan foydalanish lozim. Avvalo kompyuterda o'quv tizimlari, elektron qo'llanmalarni aks etilish darajasini aniqlab olish taqazo etiladi.

O'qitish muxitini tashkil etishda katta etibor o'quvchining tizim bilan munosabatini muvofiqlashtiruvchi qulay vositalarini ishlab chiqish, shu qatorda o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonni vizuallashtirish vositalarini ishlab chiqish lozim. Bu erda vizuallashtirish tushunchasi ostida qo'yilayotgan o'qitish masalarini vizual tarzda akslantirish lozim, ya'ni masala maksimum hayotga yaqinlashtirilgan holatga erishilishi tushuniladi. Bu vositalarni o'quvchi (foydalanuvchi) interfeysi nomi bilan umumlashtirish mumkin.

O'qitish dasturlari (avtomatik o'qitish tizimlari ham, oddiy o'qitish tizimlari ham, elektron o'quv qo'llanmalari ham) quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirish uchun hizmat qiladi:

1. O'quv materialini ko'rsatish: o'quvchiga ma'lum shaklda tartiblangan matnli, grafik, audio va video materiallar havola qilinadi. Ushbu ko'rinishdagi dasturlar ko'rgazmali, shu bilan birga kompyuterlashtirilgan ma'ruza va elektron matnli qo'llanmalar deb yuritiladi;

2. Test va diagnostika qilish: o'quvchining xatti-xarakati aniqlanishi uchun tekshiruvdan o'tkaziladi. O'quvchi xatti-xarakati tushunchasi ostida uning joriy bilimining chuqurligi, malaka va ko'nikma hosil qilish darajasi tushinilishi lozim;

3. Mashqlarni bajarish: o'quvchi biror ish bajarish jarayonida (bu ish - masala echish, laboratoriya ishlari va hakazolar) bilim, malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchi chegaralangan vaqtda tekshiriladi va qo'yilgan maqsadga etganligi darajasi aniqlanadi;

4. O'qitish: o'quvchi o'quv dasturi boshqaruvi ostida ma'lum fan sohasi bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qiladi, shu asnoda dastur o'z zimmasiga o'quv materialini namoyish qilish, uni egallanish darajasini nazorat qilish va o'quvchi hatolarini diagnostika qilishni oladi. Berilgan sinfga ta'luqli dasturlar:

a) ta'lim berish maqsadlarining mavjudligi;

b) o'quvchi bilan muloqot qilish ko'rinishini belgilovchi va maqsadga etkazuvchi o'qitishning ba'zi uslublarini amalga oshirishi;

v) o'qitish, nazorat va diagnostika masalalarining kompleks echimlari bilan xarakterlanadi.

Multimediya elektron qo'llanmalar turli toifali foydalanuvchilarning individual ta'lim olishini ta'minlaydi.

To'rt darajali bilim oluvchi modeli qo'llaniladi:

- lokal, bilim oluvchi tomonidan oxirgi bajarilgan vazifa ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan;
- joriy, o'zida joriy dars natijasi taxlilini mujassamlashtiruvchi;
- global, kurs bo'yicha o'quv va tarmoq uzellarini bosib o'tish ketma-ketligi natijalarini mujassamlashtiruvchi;
- tekshiruv, aprior tekshiruv natijalarini mujassamlashtiruvchi.

Shu qatorda bir qancha multimedia elektron qo'llanma qurish vositalari borki, ularning imkoniyatlari juda keng. Ularda o'zlarining skript tillari bo'lib, qurilayotgan tizimning alohida ko'rinishlarini dasturlashi, ixtiyoriy miqdordagi grafik, audio, video formatlar bilan ishlashi, alohida platformali o'qitish tizimlari qurishi va ularni dasturiy vositalarga bog'liq bo'lmagan holda ishlatishi mumkin. Biroq bunday qurish vositalari juda ham qimmat va keng foydalanuvchilar ommasi uchun foydalanish imkoniyati chegaralangan. Bu kabi dasturiy vositalarga Toolbook, Author Ware, Director, Media Objects, learning Spase.

Bundan tashqari murakkab dasturiy komplekslar ham mavjud bo'lib, ular masofaviy o'qitish tizimi uchun o'quv qo'llanma va test materiallarini ishlab chiqish bilan bir qatorda o'quv jarayonini boshqaruvini amalga oshiruvchi imkoniyatlarga ega. Bu kabi tizimlarga «e-learning server 3000» (Hyper Method kompaniyasi), SDO «Prometey» misol bo'ladi.

I-BOB. TAXLILIIY QISM

1.1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlaridagi o'rni

Hozirda respublikamiz barcha viloyatlaridagi ish olib borayotgan aniq yoki ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha elektron o'quv dasturlari o'quvchilar bilim saviyasini oshirishda qo'l kelmoqda. Bu dasturlar ko'pincha bitta kompyuterda foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ma'lum bir guruhga yoki bir necha foydalanuvchiga namoyish qilish uchun zamonaviy kompyuter proektorlaridan foydalanilmoqda.

Multimediaviy o'qitish sistemasi o'quv materialini chiroyli tarzda namoyish qilish, kompyuter imitatori yordamida amaliyot o'tkazish, testlash sistemasi va boshqa barcha qo'shimcha materiallarning bitta umumiy interaktiv kompyuter elektron darsligida aks ettirilishda namoyon bo'ladi. Multimediaviy darslik nafaqat o'qituvchi uchun kunlik foydalaniluvchi funktsiyalarni bajarishni osonlashtiradi, balki predmetga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'qish jarayonini tezlashtiradi va bilimni yaxshi o'zlashtirishni ta'minlaydi. Lekin multimediaviy sistemalar etarli darajada ma'lum apparatlarni talab qiladi, ma'lum fotoprogrammalar yoki multimediaviy programmalarni yuklashga to'qri kelishi va bular katta hajmni egallashi ishlash jarayoni chegaralanishiga olib keladi.

O'quv sistemasining uchinchi xili gipertekstli o'qitish sistemasi qisoblanadi. Gipertekst boshqarishning boshqa xillaridan farq qilib, uning asosiy ish xolati foydalanuvchining nafaqat kerakli informatsiyani qidirishi, balki aniq predmet bilan qanchalik tanishishda o'zaro ma'nosi bilan bog'langan informatsion fragmentlar qatori vositalari ko'rinishini o'z ichiga oladi. Informatsion hujjat bilan tanishish foydalanuvchi shartli maqsadlarining aniqlangan ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Web tarmoq sistemasida ma'lumotlar gipermatnli hujjatlar shaklida olinadi. Gipermatn boshqa matnli hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga (bu matnlar qaysi mamlakatning serverida turishidan kat'i nazar) tezda

o'tish imkonini beradi. Matnlar bir qatorda www qujjatlarida rangli xarakatdagi tasvirlarni, videokliplarni, umuman multimediya ma'lumotlarini ham kurish mumkin. Matndan tashqari boshqa shaklidagi ma'lumotlarni ham beruvchi hujjatlar gipermediya hujjatlari deyiladi.

Webning asosiy xususiyatlaridan biri unda turli matn, video, grafik ob'ektlarga gipermurojaat mavjudligidir. Matnlarda kalit so'zlar deb ataluvchi so'zlar orqali dunyoning ixtiyoriy burchagida Internet doirasida joylashgan ma'lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma'lumotlarni topish gipermurojaat deb ataladi. Ajratilgan so'z va iboralar – gipermatn aloqalari qisqacha giperalokalar deb yuritiladi. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlarga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin va hokazo. Shunday qilib, Web – gipermatnli sistema bo'lib, unda ma'lumotlar ixtiyoriy tartibda (chiziqsiz bo'lmagan) joylashadi. Uning na boshi na oxiri bor. qozirda giperaloqalar fakt matnda ajratilgan so'zlar bilangina emas, xatto tasvirlar, grafiklar, ularning qismlari orqali qam amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Webda biror mamlakatning geografik xaritasi mavjud bo'lsa, uning bir bo'lagiga «sichkoncha» ni qo'llab tugma bosilsa, u orqali mavjud Web ma'lumotlariga kiriladi.

Webda ma'lumotlar Web saxifalari shaklida beriladi. Bu saxifalar maxsus HTML tilida tashkil qilinadi.

Biz ko'rib chiqayotgan masala, yangi informatsion texnologiyalar asosida ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda, masofaviy ta'lim tizimi va boshqa turdagi ta'lim tizimlari uchun yordamchi vositani – elektron o'quv qo'llanmalarni loyixalash usul va modellarini, ya'ni uning nazariy asosini bir tizimga solish xisoblanadi. Elektron darslik – bu o'quv jarayonida o'quv qo'llanmalarining boshqacha turi hisoblanadi. U o'z ichiga informatsion texnologiya sohasi ma'lumotlarini yoki boshqa soha ma'lumotlarini jamlagan bo'lishi mumkin. Darslikning muhim xususiyati shundaki, unda xohlagan vaqtda kerak qo'shimcha ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Darslikning har bir kursi yoki dars jarayonini ma'lum kompyuter sinflarida yoki uyda ham o'rganish imkoniyati mavjud. Bizning

yaratayotgan ushbu elektron darslikda dars materiallariga asoslangan test dasturi ham mavjud bo'lib, unda o'rganuvchi o'z bilim saviyasini darslik doirasida sinab kurishi mumkin.

1.2. Elektron o'quv qo'llanmalarni qurish asoslari

Inson faoliyatining barcha sohasini kompyuter texnologiyalari qamrab olmoqda, ya'ni hozir biz yashayotgan davr kompyuter asri kirib kelishi deb qarashimiz mumkin. Bunday deyishimizga sabab, kompyuter bizning hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shunday ekan kompyuter savodxonligi ikkinchi savod sifatida qaralmoqda. Bu esa yalpi kompyuterlashtirishni tezlashtirmoqda.

Kompyuter texnologiyalari ta'lim jarayoniga ham jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Uning vositasida o'qituvchi va ta'lim oluvchining ish mahsuldorligini, ta'lim berish va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish asosiy maqsaddir. Shu qatorda kompyuter texnologiyalarini tor va keng ma'noda ishlatish mumkin. Birinchidan, o'qitish vositasi sifatida qo'llash, ikkinchidan, kompyuterni ta'lim sohasida keng maqsadlarda qo'llash tushiniladi.

Elektron darslik– birinchi navbatda yangi o'quv materialini namoyish etish, an'anaviy bosma chop etilgan qo'llanmalarni to'ldiruvchi, individual va individuallashtirilgan tartibda ta'lim olishni ta'minlovchi va olingan bilim va ko'nikmalarni sinovdan o'tkazuvchi kompyuterli-informatsion (ma'lumotlar hamda bilimlar bazasi ko'rinishida) dasturiy vositasidir.

Elektron darsliklari o'qitish tizimi va mustaqil ta'lim tizimida qo'shimcha yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin, chunki u o'quv materiallarini bosma o'quv materialiga nisbatan: induktiv yondashuv, eshitish va hissiy xotirasiga va shu kabilarga tushuncha etkazishda qulayliklar tug'diradi;

- o`quvchining talablariga asosan, uning tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va qiziqishlariga qarab ko`nikma xosil qilishiga imkoniyat yaratadi;

- soha tushunchasiga e`tiborni jamlab, ko`proq masala qarash va echish imkoniyatlarini yaratib bergani xolda, juda ham katta hisoblar va qayta ishlovlardan ozod qiladi;

- ish jarayonining barcha bosqichlarida o`z-o`zini tekshirish imkonini beradi;

- ishni chiroyli va sarishta qilib o`qituvchiga fayl yoki bosmadan chiqarib berish imkonini beradi;

- juda ham bardoshli ustoz bo`lib, foydalanuvchilarning oxiri yo`q savollari bilan ishlashi, u hohlaganicha takroriy marotaba o`quv materiallarini ko`rsatishi mumkin.

Elektron darslik talaba uchun katta ahamiyatga ega, chunki u tizimdan fan sohasi bo`yicha yirik va keng qamrovli ma`lumot olishi mumkin.

Elektron darslik amaliy auditoriya mashg`ulotlari uchun ham qo`llashga qulaydir, chunki:

- ko`p sonli masalalrni echishda kompyuterdan foydalanish imkonini berib, olingan echim tahlili va grafik interpretatsiyasi uchun ketadigan vaqtni tejaydi;

- o`qituvchi uchun darsni mustaqil dars formasiga aylantirishga imkon beradi, shu bilan birga o`qituvchi ham konsultant, ham rahbar sifatida qoladi;

- o`qituvchi uchun o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini kompyuter tizimi orqali aniqlash va baholash imkonini beradi.

Elektron darsliklar, o`quv jarayonining yangi vositasi sifatida ochiq yoki qisman ochiq tizim bo`lishi mumkin. Ochiq va qisman ochiq tushunchasi orqali bu erda elektron darsliklarning tuzilishi va tarkibiga o`zgartirish kiritish mumkinligi yoki mumkin emasligi nazarda tutilgan.

1.3. Masalaning qo'yilishi

Bitiruv - malakaviy ishini bajarishdan maqsad, " Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash " video kursini ishlab chiqish. Video kurs IBExpertdan foydalanuvchi har qanday dasturchi bilishi lozim bo'lgan, eng dolzarb va boshlang'ich ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Video kursda quyidagi vositalar ko'rib chiqiladi:

Quyidagi mavzular bo'yicha video ma'ruzalar ishlab chiqish lozim:

- 1) Interbase, Firebird va IBExpert
- 2) IB Expert orqali ma'lumotlar bazasini hosil qilish
- 3) IB Expertda domen va jadvallar hosil qilish
- 4) IB Expertda jadval va triggerlarni hosil qilish
- 5) IB Expertda jadval va generatorlarni hosil qilish
- 6) IB Expertda protsedura hosil qilish
- 7) IB Expertda tranzaksiyani tasdiqlash
- 8) IB Experni sozlash

Masalani hal qilish uchun quyidagi dasturlash tillari va dasturiy vositalar kerak bo'ladi:

Delphi 7 dasturlash tili

Adobe Photoshop CS dasturi

Camtasia Studio 6

Java Script

IBExpert boshlovchilar uchun video kursi dasturi Windows amaliyot tizimida ishlaydi.

Xulosa

Birinchi bob ob'ekt tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlaridagi o'rni va elektron o'quv qo'llanmalarni qurish asoslari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida masalaning qo'yilishi shakllangan.

II-BOB. ASOSIY QISM

2.1. Interaktiv elektron darsliklar qurishning asosiy talab va tamoyillari

Interaktiv rejimda ishlay oluvchi dasturiy tizim elektron darsliklarni qurish, avvalo, mavjud masofaviy o`quv qo`llanmalar qurish usullarini tahlil qilish va elektron darslik modellarini qurishni ta'minlovchi tamoyil va kategoriyalarni ishlab chiqarishni talab qiladi.

Dasturiy tizim qurishdagi muammo, elektron darslik modelini qurishda murakkab arxitektura, echimlarni qo`llash, foydalanuvchi bilan muloqotni shakllantirish, shu qatorda dastur kodi hajmining oshib borishi hisoblanadi. Bugungi kunda ixtiyoriy murakkab jarayonlarni yaratishda uning tizimli modelini qurmasdan hamda vizual modellashtirish usul va vositalaridan foydalanmasdan iloj yo`q.

Elektron darslik modelini turli nuqtai nazarlardan kelib chiqqan holda bayon etishi kerak. Bu elektron darslikning to`la modeli bir qancha alohida har tomonni aks ettiruvchi qismlardan tashkil topishi lozim. Tashkil qiluvchi modelni tanlash muammoga yondashuv va qaror qabul qilishga bog`liq.

Ushbu ko`rinishdagi dasturiy tizim qurish masalasi hal qilinishi elektron darslikni foydalanuvchi tushinuvchi darajaga olib chiqish mumkin. Bunga ularni qurishda ierarxik tamoyil va grafik ko`rinishli tasavvur hosil qilish yo`li bilan erishishi mumkin. Tizimning ierarxik darajada qurish tahlil qilinuvchi elementlar sonini qisqartiradi.

Qurilgan elektron darslik modeli uning butun faoliyati davomiyligida ishlab boradi. Bunga sabab elektron darslik uchun qo`yiladigan talabning o`zgarishi va bu o`zgarishlar asosida qandaydir hato va kamchiliklarni yo`qotish yoki yanada muvofaqqiyatli echimlar topilishi bo`lishi mumkin.

Elektron darsliklarga qo`yiladigan talablarni umumashtirilgan va tizimlashtirilgan ko`rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Elektron darslik ko`zni charchatib qo`ymasligi uchun o`zida minimum matnli axborotni mujassamlashtirgan bo`lishi kerak. Qo`llanayotgan shrift o`lchami va turi hadm muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribadan shuni ko`rish mumkinki, bosma kitoblarda bo`yalgan va egiltirilgan yozma usullaridan ba`zi tushunchalarni ajratib ko`rsatish uchun qo`llaniladi. Elektron darsliklarda esa ajratib ko`rsatish lozim bo`lgan alohida tushunchalar ayri holda, bo`yash orqali va fon bilan ajratilib ko`rsatilishi mumkin. Bu esa tushunish darajasini ortishiga olib keladi. Biroq ortiqcha kontrastlik va yorqinlik ham salbiy ta`sirlarga olib kelishi mumkin;

Bunday materiallar ko`proq bezakli ko`rgazmalar bilan boyitilishi lozim. Morxelning ta`kidlashicha ta`limda bezakli ko`rgazmalar o`quvchini tafakkurlashi va tasavvurini kengaytiradi va ta`lim mazmunini boyitadi. Bir qator avtorlar bezakni yuqori didaktik qiymatga ega deb ta`kidlashadi. Elektron darslik hajmini kamaytirish va tarmoqdagi ishining optimalligini oshirish uchun GIF, JPEG va boshqa grafik hamda grafik jihatdan bo`yoq palitrasi kamaytirilgan yoki vektorli (WMF kabilar) grafik fayllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

Videofragmentlarni qo`llash jarayon va hodisalarni dinamikada berish imkonini yaratadi. Fayl hajmi kattaligini hisobga olmagan holda bu jarayonni qo`llash o`quvchi uchun materialni qabul qilish darajasini oshirishga yordam beradi va albatta bilim sifatini oshiradi;

An`anaviy ta`lim berish formasi verbal hususiyatga ega. Elektron darsliklarda audio-videofragmentlardan foydalanishni qabul qilishni an`anaviy darajaga yaqinlashtiribgina qolmay, balki qabul qilish sifatini yuqori darajaga olib chiqadi. YUNESKO tashkilotining ma`lumotlariga ko`ra—audio o`zlashtirish jarayoni yordamida axborotning 12%i, vizual o`zlashtirish jarayonida 25%ga yaqini, audiovizual o`zlashtirish jarayonida 65%igacha hissiy o`zlashtirishga erishilar ekan. Bundan tashqari auditoriyada bunday usul qo`llanganda audio vositani bir-biriga halaqit qilmagan holda individual foydalanish mumkin;

Elektron darslik o`zida qo`llanma elementlariga, imkoniyat bo`lsa boshqa elektron qo`llanma va ma`lumotlarga aniq murojaatli gippermurojaatga ega bo`lishi hamda ushbu murojaatlar orqali kerakli varaqqa o`tish imkoniyatini yaratadi;

OLE yoki turdosh texnologiyalar yordamida misol, test va boshqa maqsadli dasturlarni ishlatib, ko`rsatib berishi;

Materialni o`rganuvchi tomonidan o`zlashtirilishi matn, grafika va boshqa elementlarning varaqdagi tartiblanishiga bog`liq. Chunki an`anaviy darsliklarda o`rganilayotgan materialda bir paytda tushuncha yozilgan betni ochib bir – biriga taqqoslash imkoni bor. Elektron darsliklarda esa buni imkoni yo`q. Lekin yuqoridagi tartibot bo`yicha elektron darslik tartiblashni engillashtirishda belgi qo`yish va qo`yilgan belgini tartiblangan ketma-ketligini ko`rsatish lozim;

Elektron darslik da albatta taklif etiladigan adabiyotlar ro`yhati (u bosma shaklda chop etilgan bo`lsa ham) berilishi lozim. Elektron darslik Oliy o`quv yurti uchun tuzilsa, albatta, unda kutubxonadagi ushbu adabiyotlar soni, jurnallar va maqolalarning aniq koordinati ko`rsatilishi lozim. Bundan tashqari Oliy o`quv yurti kutubxonasi ega bo`lgan elektron ma`lumotlarga hamda INTERNET tarmog`idagi elektron ma`lumotlarga aniq murojaat bo`lishi lozim.

Elektron darsliklarni qurish jarayonida boshqa o`qitish tizimlarini qurish kabi uning psixologik tomoniga ham e`tiborni qaratish lozim. Bu odam bilan kompyuter o`rtasidagi muloqotni to`g`ri yo`lga qo`yish masalasidir. Ko`proq ushbu muloqot jarayonini noto`g`ri bo`lishi, ya`ni buzilishiga beriladigan yordam (help) tizimining judayam kattaligi yoki etishmasligi, baholash me`zonining muvofiq emasligi, echilayotgan vazifa, savolga javob, yordamning asoslanmaganligida deb qarashimiz mumkin. Bu albatta, qisqartilishi lozim bo`lgan joylarning kengayishiga, o`qitish vaqtining cho`zilishiga, o`qitishning asosililigini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Elektron darsliklarning qurishda amal qilingan bir qator tamoyillarni tizimlashtirilib quyidagilarga kelish mumkin:

Kvantlash tamoyili: materialni modullardan tashkil topgan, minimal hajmga ega bo'lgan biroq ma'no jihatidan tugallangan bo'laklarga bo'lish;

To'laqonlilik tamoyili: har bir modul quyidagi komponentalardan tarkib topishi mumkin:

nazariy yadro,

nazariyot bo'yicha nazorat savollari,

misollar,

mustaqil hal etish uchun masala va mashqlar,

nazorat ishi,

kontekst ma'lumot (Help),

tarixiy sharx.

Ko'rgazmalilik tamoyili: har-bir modul tushuncha hosil qilish va yangi tushunchalarni yodda saqlab qolish, usullari aks etilgan kadrlar kolleksiyasini minimum tekst va vizuallashtirishdan iborat bo'ladi;

Tarmoqlanish tamoyili: foydalanuvchi uchun bir moduldan ikkinchi modulga o'tish imkoniyatini yaratish maqsadida modullar o'zaro gipermatnli murojaatga ega bo'ladi;

Boshqaruv tamoyili: o'quvchi ekranda kadrlar almashinuvini mustaqil boshqara oladi. Ya'ni o'quvchi o'zi-o'z oldiga qo'yilayotgan masala murakkablik darajasini belgilab, tekshiruvdan o'tkazadi;

Moslashuvchanlik tamoyili: o'quv materiali bo'yicha o'quvchi keyin oldingi kvalifikatsiyasiga qarab bezak, grafik va geometrik ifodalash, ya'ni elektron darslik o'quv jarayonida foydalanuvchi ehtiyoji asosida moslashuvi uchun sharoit tug'dirishi;

Kompyuter ko'magi tamoyili: istalgan paytda foydalanuvchi kompyuterdan (tizimdan) zaruriy ko'makni olishi lozim. Ushbu ko'mak o'quvchi uchun masala va muammolarni hal qilishda chetlashishdan saqlashi, vaqtni tejashda muhim rol o'ynaydi;

Ixchamlilik tamoyili: elektron darslik shunday formatda bajarilishi lozimki, ularni bitta yagona elektron kompleksga yig'ish imkoniyatini tug'dirsin, bundan tashqari bo'lim va mavzular bo'yicha kutbxonalar tashkil qilish, o'qituvchi yoki tadqiqotchi shaxsiy kutbxonasini tashkil etish imkonini tug'dirsin.

Bugungi kunda kompyuter o'quv qo'llanmalarining ikki xil yo'nalishi mavjud: INTERNET–texnologiyalar va CASE–texnologiyalari.

Birinchi, INTERNET – texnologiyalari asosida qurilgan qo'llanma o'zida gipermatnli xujjatni ifodalab, WWW (World Wide Web) varag'i hisoblanadi. U HTML (Hyper Text Markup Language) va JAVA kabi dasturiy tillar yordamida amalga oshiriladi va INTERNET hamda INTRANET tarmog'ida tarqatishga mo'ljallanadi.

CASE – texnologiyasidan foydalanish deganda esa, elektron darslikni an'anaviy oddiy tillarda qurishni tushinishimiz mumkin.

Ushbu ikki texnologiyaning bir qator o'ziga hos tomonlari mavjud. INTERNET – texnologiyasining afzalligi shundan iboratki, unda mahsulotni qay darajada olinganligining ahamiyati yo'q, to'g'rilashlar, o'zgartirishlar kiritish oson kechadi. Foydalanuvchi uchun dasturni yangilash bir nechta fayldan nusxa olish bilan cheklaniladi (INTERNET tarmog'idan). Shu qatorda foydalanuvchi INTERNET – texnologiyalaridan foydalanganida litsenziyalangan mahsus dastur harid qilishiga zarurat qolmaydi, ya'ni JAVA va HTML matnli fayllar bilan ishlaydi, ular uchun esa kompilyatorlarga zarurat yo'q.

CASE – texnologiyalari oddiy dasturlash tillaridan foydalanganligi sababli muallif fikrini yaqqolroq ro'yobga chiqara oladi, INTERNET – texnologiyalaridek qilish mushkul yoki mumkin emas degan xulosa chiqarishi mumkin. CASE – texnologiyalaridan foydalanilgan dasturlar ikki ixtiyoriy kompyuterda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. INTERNET – texnologiyasida bunday emas. Ikkinchi kompyuterda axborot namoyishi boshqacha ko'rinishga kelishi mumkin.

2.2. O`qitish jarayonini boshqarish usullari

Shaxsiy kompyuterni ta'lim jarayonida qo'llash o'tgan asrning 60 yillaridayoq dolzarb muammo darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi XXI asrga kelib ta'lim sohasida Shaxsiy kompyuterlardan foydalanish keng qamrovda amalga oshirilmoqda. Bu erda «e» qo'shimchali darslik, vosita va qo'shimcha qo'llanmalar tushunchalari kirib keldiki, ta'limning «e» qamrovli qismi (e-learning, e-book, e-teaching va boshqalar) afzalligi va o'ziga hos tomonlarini namayon etmoqda.

Hozirda elektron qo'llanmalarning bir qancha turlari mavjud. Yuqorida ularni sinflarga ajratib, tamoyillari va loyihalashda qo'yiladigan talablarini qarab o'tdik.

Avvalo, biz o`qitish jarayonining mazmuni va maqsadlarini ajratib olishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi. An'anaviy ta'limda o`qitish jarayonining asosiy tashkil qiluvchi tuzilmalari: o`qituvchi - T, o`quvchi - S, didaktik materiallar – M, o`quv uslubiy majmuaning yadrosi hisoblanadi. O`qitish faoliyati o`quvchiga tartiblangan ta'sir ko'rsatishdir. Ta'limni ishlab chiquvchi va tashkil qiluvchi o`qituvchidir. Elektron darsliklar va umuman barcha o`qitish dasturlari turlicha tarzda quriladi va tadbiq qilinadi. Bir muncha sodda hollarda o`qitish ta'siri va dastur, ularni berishni boshqaruv birlashtirilgan, boshqalarida esa bu funktsiyalar bo`lingan, ya'ni: o`qitish ta'siri bilimlar bazasi ko`rinishida saqlanadi. Boshqaruv dasturi esa vaqt oralig'idagi o`qitish ta'sirini aniqlab beradi. Ba'zi xollarda o`qitish dasturlarida o`qitish ta'sirlarini o`zlari emas, balki ularning komponentalaridan ayrimlari ishlatiladi va tizim buni generatsiyalaydi. Ba'zida esa, tizim o`qitish dasturi ishlashining qat'iy algoritmiga asoslanadi. Yana bir xollarda tizim ekspert tizimning vazifasini bajaradi. Bu unda o`qitish strategiyasini qurishda ma'lum bir qonun – qoidaga asoslanish, shuningdek tizim empirik ma'lumotlar to`plab, mustaqil o`qishni amalga oshirgan va o`qitish strategiyasini yaxshilagan holda yangi qoidalar ishlab chiqaradi.

Turli o`qitish dasturlarini loyihalash o`ziga hos jarayonga ega bo`ladi. Bu birgina ularning turlariga qarab emas balki tizimning intellektuallik darajasiga qarab, ya'ni ular odamning o`qish faoliyatini modellashtirishini qanchalik to`liq amalga oshirishi bilan belgilanadi.

O`qitish dasturini loyihalash – bu umumiy tadqiqot strategiyasi komponentasi bo`lib, u nazariy muammolarni hal etish, kompyuterli ta'limni amalga oshirish texnologiyalari va o`qitish nazariyasi borasida tadqiqotlar majmui asosida loyihalash texnologiyalaridir.

O`qitish dasturlarini loyihalash ko`p darajali jarayon bo`lib, uni quyidagi darajalarga bo`lish mumkin:

kontseptual;

texnologik;

operatsion;

amalga oshirish.

Kontseptual darajada o`qitish modeli beriladi: o`qitish tizim shaklida ifodalanadi, u ikki tizim osti tizimdan iborat – o`qituvchi faoliyati va o`quvchi faoliyati: o`qitishning barcha komponentalari, shu jumladan mundarija (bu erda gap uni loyihalashning umumiy tamoyillari haqida borayapti) va o`qitish uslubi (makro darajasida ifodalanuvchi, ya'ni o`qitish turi) ushbu harakatlar kontekstida qaraladi.

Bu erda ta'lim tamoyillari va psixologik mexanizmi bayon qilinadi. Ular ta'lim berish jarayonida o`z nuqtai-nazarimizni ifodalaydi va ta'limning nazariy asosi hisoblanadi.

Texnologik darajada o`quv dasturlari o`qitish faoliyatini mikro darajada boshqarish ko`rinishida ifodalanadi. Loyiha bayoni kontseptual darajadan farqli o`qitish texnologiyasi darajasida bayon etiladi.

Operatsion darajada o`quv jarayonini didaktik masala echimi ko`rinishida ifodalanadi. Bu erda, birinchidan, kompyuter o`qitish faoliyatining funktsiyasini

o`zida mujassam etsa, ikkinchidan, o`qitish faoliyatini asosli boshqaruv usullari ko`rsatiladi.

Quriladigan tizim loyihasi quyidagilar belgilab ko`rsatishi mumkin:

kompyuter o`qitishning qanday ko`rinish berilishi (takrorlash, mustahkamlash, o`qitishning to`liq ko`rinishi va hakazo);

- o`qitishni individuallashtirish;
- o`quvchi o`qishining tarixi hisobga olinishi, ushbu ma`lumotning ishlatilishi;
- tizimda muloqotning qaysi turi amalga oshiriladi;
- tizimda o`quvchi tomonidan boshqaruvni amalga oshirish qay darajada yo`lga qo`yiladi;
- tizimda boshqaruvning javobga nisbatan yoki jarayon bo`yicha boshqaruv turlaridan qaysi biridan foydalaniladi;
- agar boshqaruv jarayon bo`yicha bo`lsa, masala echimining qaysi nuqtalarida yordam ko`rsatiladi va boshqalar;
- agar o`qitish dasturi intellektual tizim ko`rinishida qurilgan bo`lsa, tizim modullari va ular orasidagi uyg'unlikni yoritib berish kerak.

O`qitish tizimini loyihalashning ushbu darajasi o`qitish tizimining dasturiy ta`minotini amalga oshirish uchun asosi hisoblanadi.

Amalga oshirish darajasi ikki darajani o`zida mujassamlashtiradi: pedagogik va dasturiy amaliyot.

Pedagogik daraja o`zida o`qitish ta`sirlarini mujassamlashtirib, stsenariylar ko`rinishidagi amaliyotga ega bo`ladi. Dasturiy amaliyot esa, o`qitish tizimi har-bir vaqtda qanday ta`sir ko`rsatishini aniqlaydi. Stsenariyning ikki bo`lakka bo`lish mumkin – ichki va tashqi. Tashqi tasvirlash asosiy va yordamchi ta`sirlarga bo`linadi (yoki ularga talablar, Ushbu talablar ostida tizis har bir ta`sirni ishlab chiqadi), ichki ta`sir esa –o`quv faoliyatini boshqarish algoritmini o`zida aks etiradi. O`qitish tizimi biror dastur orqali amalga oshirilsa, stsenariy bir o`qitish ta`siridan boshqa o`qitish ta`siriga o`tish algoritmidan iborat bo`ladi.

2.3. Delphi dasturlash tili

Delphi ning VCL kutubxonasida matnli ma'lumotlarni kiritish, taxrirlash va formaga chiqarish uchun bir qancha komponentalar mavjud. Har xil mantlarni formaga chiqarish uchun Label, StaticText va Panel komponentalaridan foydalaniladi.

Label komponentasining asosiy xususiyati Caption. Bu komponentadagi matnni foydalanuvchi tomonidan o'zgartirib bo'lmaydi. Bu mantni ilovani ishlab chiqish jarayonida kiritish mumkin. Yoki programma ishlash jarayonida programma kodi orqali o'zgartirish mumkin.

Matnli ma'lumotlarni kiritish va formaga chiqarish komponentalarida va boshqa bir qancha komponentalarning Font xususiyati mavjud. Bu xususiyat orqali matnning shriftini, o'lchamini, rangini, shaklini o'rnatish mumkin. Font xususiyati o'z navbatida quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

Charset	Belgilar qatorini o'rnatish
Color	Matn rangini o'rnatish
Height	Shrift balandligini piksellarda o'rnatish
Name	Shrift nomini o'rnatish
Pitch	Shrift kengligini o'rnatish
Size	Shrift o'lchamini o'rnatish
Style	Shrift shaklini o'rnatish: fsBold – qalin, fsItalic – yotiq, fsUnderline – tagiga chizilgan, fsStrikeout – ustidan chizilgan

Programmada shrift shaklini quyidagicha o'rnatish mumkin:

Label1.Font.Style := []; {odatiy shakl }

Label1.Font.Style := [fsBold]; {qalin }


Label1.Font.Style := [fsBold, fsItalic]; {qalin, yotiq }

Panel komponentasi bir nechta komponentalarni guruxlash uchun ishlatiladi. Panel komponentasining Caption xususiyati orqali ma'lumotlarni formaga chiqarish mumkin.

Align xususiyati, forma o'lchamlari o'zgartirilganda, komponentaning formada turgan o'rni aniqlash uchun ishlatiladi.

Type TAlign q (alnone, altop, albottom, alleft, alright, alclient, alcustom);


Qiymat	Izoh
Alnone	komponentaning formada turgan o'rni o'zgarmaydi. Dastlab komponentaga shu xususiyat o'rnatilgan bo'ladi
Altop	Komponenta konteynerning yuqori qismini to'liq egallaydi. Programma ishlashi jarayonida uning kengligi konteyner kengligi o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bunda komponenta balandligi o'zgarishsiz qoladi.
Albottom	Komponenta konteynerning pastki qismini to'liq egallaydi. Programma ishlashi jarayonida uning kengligi konteyner kengligi o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bunda komponenta balandligi o'zgarishsiz qoladi.
Alleft	Komponenta konteynerning chap qismini to'liq egallaydi. Programma ishlashi jarayonida uning balandligi konteyner balandligi o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bunda komponenta kengligi o'zgarishsiz
Alright	Komponenta konteynerning o'ng qismini to'liq egallaydi. Programma ishlashi jarayonida uning balandligi konteyner balandligi o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bunda komponenta kengligi o'zgarishsiz qoladi.
Alclient	Komponenta konteynerning klient qismini to'liq egallashga harakat qiladi. Programma ishlashi jarayonida uning o'lchamlari konteyner o'lchamlari o'zgarishiga qarab o'zgaradi.
Alcustom	Komponentaning o'rni CustomAlignPosition va CustomAlignInsertBefore funktsiyalari orqali aniqlanadi.



Rasm 2.1 Align xususiyati

Komponentalarning Alignment xususiyati orqali mantlarni o'ngga, chapga, o'rta tekislash mumkin:

taLeftJustify	Chapga tekislash
TaCenter	O'rta tekislash
taRightJustify	O'ngga tekislash



Rasm 2.2 Align va Alignment xususiyatlari

Alignment xususiyatini yaxshiroq tushunish uchun quyidagicha programmani ko'rib chiqamiz. Quyida keltirilgan amallarni ketma – ket bajaring.

File menyusidan New Application komandasini tanlang.

Formaga Panel komponentasini qo'yib Align xususiyatini alTop ga o'zgartiring. Caption xususiyatiga ismingizni yozing.

Formaga Button komponentasini qo'yib Caption xususiyatini taLeftJustify ga o'zgartiring.

Button komponentasi ustida sichqonchani ikki marta bosing. Programma kodini kiritish darchasiga quyidagilarni yozing.

Formaga yana bir Button komponentasini qo'ying. Caption xususiyatini taCenter ga o'zgartiring.

Button komponentasi ustida sichqonchani ikki marta bosing. Programma kodini kiritish darchasiga quyidagilarni yozing.


```
procElektron darslikure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);  
begin  
Panel1.Alignment:=taCenter;  
end;
```

Formaga yana bir Button komponentasini qo'ying. Caption xususiyatini taRightJustify ga o'zgartiring.

Button komponentasi ustida sichqonchani ikki marta bosing. Programma kodini kiritish darchasiga quyidagilarni yozing.

```
procElektron darslikure TForm1.Button3Click(Sender: TObject);  
begin  
Panel1.Alignment:= taRightJustify;  
end;
```

Programmani ishga tushirish uchun F9 funktsional tugmasini bosing.




Rasm 2.3 Alignment xususiyati

BorderStyle xususiyati

StaticText va Panel komponentalarida komponenta chegaralari shaklini o'rnatuvchi BorderStyle xususiyati mavjud. BorderStyle xususiyati sbsNone bo'lganida StaticText komponentasi Label dan farq qilmaydi. sbsSunken bo'lganida ancha farqni sezish mumkin.

Panel komponentasining BevelInner, BevelOuter, BevelWidth, BorderWidth xususiyatlari orqali formaga xar xil shakllarda ma'lumotlarni chiqarish mumkin. Bu xususiyatlar quyidagi rasmdan keltirilgan.



Rasm 2.4 Panel, StaticText komponentalari xususiyatlari

Taxrirlash darchalari Elektron darslikit, LabelElektron darslikElektron darslikit va MaskElektron darslikit

2.5. rasmda taxrirlash darchalari keltirilgan. Taxrirlash darchalarining tashqi ko'rinishini BorderStyle xususiyati orqali o'zgartirish mumkin.



Rasm2.5. Taxrirlash darchalari

Elektron darslikit, LabelElektron darslik Elektron darslikit va MaskElektron darslikit komponentalarida ma'lumotlarni kiritish va chiqarish Text xususiyati orqali amalga oshiriladi. Bu komponentalarda matnni komponenta bo'ylab o'ngga, o'rtaga tartiblash ikoniyati yo'q. Agar matn komponenta kengligidan katta bo'lsa, foydalanuvchi yo'naltiruvchi strelkalardan foydalanishi mumkin. AutoSize xususiyati taxrirlash darchalarida matn balandligi uchun ishlatiladi, kengligi uchun emas.

Taxrirlash darchalarida nusxa olish Ctrl-C (Copy), qirqib olish Ctrl-X (Cut), qo'yish Ctrl-V (Paste), oxirgi amalni bekor (Ctrl-Z) qilish imkoniyatlari keltirilgan.

AutoSelect xususiyati darchaga fokus o'rnatilganida butun matnni belgilash uchun ishlatiladi. Bu foydalanuvchiga darchani tezroq to'ldirish imkonini beradi. SelLength, SelStart, SelText xususiyatlaridan faqat programma ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Programma ishlashi jarayonida, taxrirlash darchasida biror matn belgilansa. SelLength belgilangan belgilar sonini bildiradi. SelStart belgilash boshlangan indeksni bildiradi. SelText belgilangan matn qismi.

Taxrirlash darchalarida faqat ma'lumotlarni ko'rish uchun ReadOnly xususiyatini true, AutoSelect xususiyatini false qilish kerak.

Taxrirlash darchalari orqali sonlarni kiritish va chiqarish uchun maxsus funktsiyalardan foydalaniladi. Kiritish uchun StrToFloat va StrToInt

funktsiyalaridan foydalaniladi. Haqiqiy sonlarni chiqarish uchun FloatToStr va butun sonlarni chiqarish uchun IntToStr funktsiyalaridan foydalaniladi. Agar kiritilayotgan son faqat raqamlardan iborat bo'lmasa, yani raqamlar orasiga birorta xarf yoki belgi yozilib qolsa, EConvertError xatoligi sodir bo'ladi. Bu xatolik sodir bo'lmasligi uchun programmada buni xisobga olish lozim.

```
Var a: integer;  
... ..  
try  
... ..  
a := StrToInt(Elektron darslik1.Text);  
... ..  
except  
on EConvertError do  
ShowMessage('Sonni qayta kiriting');  
end;
```

Bu programma kodi son kiritishdagi xatoliklar xaqida xabar beradi. Lekin bu xatoliklarni oldini olishning eng yaxshi usuli emas. Keyingi bo'limlarda faqat raqam kiritish yoki faqat xarf kiritish imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz.

MaxLength xususiyati kiritilishi mumkin bo'lgan matn uzunligini bildiradi. Agar MaxLengthq0 bo'lsa, matn uzunligi chegaralanmagan bo'ladi. Boshqa xollarda kiritilishi mumkin bo'lgan belgilar sonini bildiradi.

ModifiElektron darslik xususiyati faqat programma ishlash jarayonida ishlatiladi. Bu xususiyat matnga o'zgartirish kiritilganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu xususiyatdan foydalanish uchun programmada dastlab ModifiElektron darslik q false qilinadi. Keyinchalik ModifiElektron darslik qiymatiga qarab o'zgartirish kiritilganligini aniqlash mumkin. Agar ModifiElektron darslik q true bo'lsa o'zgartirish kiritilgan, ModifiElektron darslik q false bo'lsa kiritilmagan.

PasswordChar xususiyati orqali taxrirlash darchasiga maxfiy ma'lumot kiritish mumkin. Masalan parolni. Buning uchun PasswordChar xususiyatiga «*» kiritiladi.. Oddiy xolatga qaytarish uchun PasswordChar xususiyatiga «#0» qiymati beriladi.

Yuqorida keltirilganlar xamma taxrirlash darchalari uchun o'rinli. LabelElektron darslikElektron darslikit komponentasi taxrirlash darchasi Elektron darslikit dan farq qilmagan xolda, unga qo'shimcha ravishda metka (Label) biriktirilgan. Metkaga TBoundLabel sinfiga tegishli bo'lgan Elektron darslikitLabel xususiyati orqali murojaat qilinadi. TBoundLabel sinfi Label ga tegishli bo'lgan barcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. (3.1 bo'limga qarang) Caption xususiyatiga "&" bilan yozilgan simvol orqali taxrirlash darchasiga tezda o'tish mumkin.

LabelPosition xususiyati metka taxrirlash darchasining qaysi tarafida bo'lishligini belgilaydi: lpAbove tepada chap tarafga tekislangan xolda (3.5 rasm Parol ga qarang). lpBelow pastda chap tarafga tekislangan xolda. lpLeft chapda, lpRight o'ngda.

